ISLOM SIVILIZATSIYASI VA MA’NAVIY QADRIYATLAR

Samatov Xurshid Ulmasjonovich
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Quldosheva Feruza Sur’atjon qizi
SamDPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi
quldashevaferuza61@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada islom sivilizatsiyasining shakllanishi, uning Movarounnahrdagi taraqqiyoti va ma’naviy qadriyatlar tizimi tahlil qilinadi. Islomdan oldingi arab jamiyatining ijtimoiy-axloqiy holati, xaniflar harakati, madrasa ta’limining vujudga kelishi va tasavvufning jamiyat hayotidagi o‘rni yoritiladi. Shariat maqsadlari, oila, ota-onaga hurmat, atrof-muhitni asrash, ilm, san’at, tinchlik va qo‘shnichilik g‘oyalari ma’naviy qadriyatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi ahamiyati va O‘zbekistonda ilmiy-ma’naviy merosni qayta tiklashdagi roli ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *islom sivilizatsiyasi, ma’naviy qadriyatlar, Movarounnahr, madrasa, tasavvuf, shariat maqsadlari, ijtimoiy adolat, tinchlik, oila, bag‘rikenglik.*

Аннотация. В статье анализируются становление исламской цивилизации, её развитие в Мавераннахре и система духовных ценностей. Освещаются социально-нравственное состояние арабского общества до ислама, движение ханифов, возникновение медресе и роль суфизма в жизни общества. Цели шариата, семья, уважение к родителям, охрана окружающей среды, наука, искусство, мир и добрососедство рассматриваются как система духовных ценностей. Также раскрывается значение этих ценностей в условиях глобализации и их роль в возрождении научного и духовного наследия в Узбекистане.

Ключевые слова: *исламская цивилизация, духовные ценности, Мавераннахр, медресе, суфизм, цели шариата, социальная справедливость, мир, семья, толерантность.*

Annotation. The article analyzes the formation of Islamic civilization, its development in Transoxiana (Mawarannahr), and its system of spiritual values. It examines the social and moral condition of pre-Islamic Arab society, the Hanif movement, the emergence of the madrasa system, and the role of Sufism in public life. The objectives of Sharia, family, respect for parents, environmental protection, science, art, peace, and good neighborliness are considered as a system of spiritual values. The article also reveals the significance of these values in the era of globalization and their role in reviving the scientific and spiritual heritage of Uzbekistan.

Keywords: *Islamic civilization, spiritual values, Transoxiana, madrasa, Sufism, objectives of Sharia, social justice, peace, family, tolerance.*

Kirish

Din va sivilizatsiya o‘zaro bog‘liq hodisalar bo‘lib, dinlar falsafasida din jamiyatning madaniy va axloqiy tizimini shakllantiruvchi omil sifatida o‘rganiladi [1, 15]. Islom esa dinshunoslik fanida jahon dinlari orasida eng yirik dinlardan biri sifatida tadqiq etiladi [2, 64]. Uning tarixi, aqidasi va amaliyoti dinshunoslik darsliklarida alohida mavzu sifatida yoritiladi [3, 120]. Islom sivilizatsiyasi faqat diniy tizim emas. U 1400 yillik tarixiy tajriba, ma’naviyat, ilm, madaniyat, falsafa va axloqni o‘z ichiga olgan ulkan insoniy dunyoqarashdir [4, 103]. Bugungi globallashuv, axborot oqimi va texnologik taraqqiyot sharoitida u insonni ma’naviy va axloqiy yo‘qotishdan asraydigan ruhiy boshpana sifatida tobora dolzarb bo‘lib bormoqda [4, 103]. Maqolaning maqsadi islom sivilizatsiyasining shakllanishini, Movarounnahrdagi o‘rnini va ma’naviy qadriyatlar tizimini yoritib, bu qadriyatlarning hozirgi davrdagi ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat.

Islom dini VII asr boshlarida Arabiston yarim orolining Hijoz mintaqasida, ayniqsa Makka shahrida paydo bo‘ldi. Islomdan oldingi davr johiliyat deb atalib, arab jamiyatining diniy, axloqiy va ijtimoiy tanazzulini aks ettirgan. Davlatchilik shakllanmagan, jamiyat qabilaviy tuzum asosida yashagan, ayollarning mavqei past bo‘lib, ko‘p hollarda qiz bolani tiriklayin ko‘mish odati saqlanib qolgan edi [4, 98–99]. Johiliya so‘zi arabcha “jahula” so‘zidan olingan bo‘lib, bilimsizlik, nodonlik, ya’ni “yagona Allohni tanimaslik” ma’nosini anglatadi. Bu davrda arablar orasida ko‘pxudolik hukm surib, har bir qabilaning sig‘inadigan o‘z sanamlari mavjud bo‘lgan, ma’naviyat tubanlashib, mayparastlik va axloqiy buzuqliklar keng tarqalgan edi. Arabiston yarim orolining iqlimi noqulay, qumli sahrolar va tog‘lardan iborat bo‘lib, ko‘chmanchi aholi chorvachilik bilan shug‘ullangan, nisbatan qulay iqlimli Yaman esa qadimdan rivojlangan qishloq xo‘jaligi va madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan. Xijoz hududi esa qadimiy karvon yo‘li o‘tgani sababli iqtisodiy jihatdan birmuncha rivojlangan, Yasrib kabi shaharlar savdo markazlariga aylangan. Badavlat qabilalar iqtisodiy jihatdan zaif qabilalarga o‘z ta’sirini o‘tkazib, ularning arzon mehnatidan foydalangan, bu esa ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqargan [2, 66–69]. Makka savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan bo‘lsa-da, Ka’ba butparastlik markaziga aylangan, boylik ozchilik qo‘lida to‘plangan, qolganlar esa kambag‘allik va qullikda yashagan. Shu sharoitda xaniflar deb atalgan kam sonli shaxslar butparastlikka qarshi chiqib, Ibrohim alayhissalomning tavhidiy yo‘lini izlagan va yagona Allohga iymon keltirgan. Bu harakat islomga zamin yaratgan ma’naviy muhitning muhim bo‘g‘ini bo‘ldi, Muhammad ibn Abdullohga yuborilgan vahiy esa qabilachilik, taassub va zulmga asoslangan jamiyat o‘rniga adolat, ma’rifat va ixlosga asoslangan yangi hayot

g‘oyasini taklif etdi. Shu tariqa islom johiliyat zulmatini nurga aylantirib, adolat, bag‘rikenglik, ilm va insoniy qadriyatlarga asoslangan yangi tamaddunni, ya’ni islom sivilizatsiyasini yaratdi. Bu ta’limot aqida (e’tiqod) va amal (ibodat)dan iborat bo‘lib, inson faoliyatini nafaqat ibodatda, balki mehnat, oila, fan va jamiyat hayotida ham Alloh rizoligi yo‘lida tashkil qilishni ko‘zlaydi [4, 99–101].

Islom so‘zi arabcha “Allohga o‘zini topshirish, itoat etish, taslim bo‘lish” ma’nolarini beradi. Islom ta’limotiga ko‘ra, Muhammad (s.a.v.) avvalgi payg‘ambarlarning ishini davom ettirgan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg‘ambar (Xotam al-anbiyo), ya’ni nabiy va rasul deb tan olinadi [2, 81]. Islom dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biriga aylanib, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ham muhim o‘rin tutdi. Arab tili va arab yozuvining keng tarqalishi hamda shariatning ijtimoiy hayotning turli sohalarini idora etishi islomning xalqlar madaniyatiga ta’sirini kuchaytirdi. Islomda din asoslari “arkon-ad-din” deb ataladigan besh amaliy rukn bilan belgilanadi: kalimai shahodatni bilish, kuniga besh vaqt namoz o‘qish, ramazon oyida bir oy ro‘za tutish, badavlat kishilar foydasidan qirqdan bir qismini zakot berish va imkon bo‘lsa, umrda bir marta haj qilish. Me’morchilik yodgorliklari — madrasa, masjid va maqbaralar qurishda, ilm-fan va ma’rifatni targ‘ib qilishda islom o‘z ifodasini topgan [2, 82].

Movarounnahr tarixi Markaziy Osiyo dinlari tarixining ajralmas qismi sifatida o‘rganiladi [5, 64]. Islom keyinchalik Movarounnahrga, ya’ni Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi qadimiy zaminga kirib keldi va bu hududda uning tarqalishi butun Sharq ma’naviyati va ilmiy hayotida burilish nuqtasini yaratdi. Qutayba ibn Muslimning 705–715-yillardagi harakatlari natijasida Buxoro, Samarqand va Xorazm kabi shaharlar islom bilan tanishdi, biroq bu jarayon faqat harbiy yurishlar bilan cheklanmadi, u musulmon da’vatchilar, ulamolar, so‘fiylar va savdogarlar orqali tinch yo‘l bilan ham keng yoyildi. Aholi ilk davrlarda zardushtiylik, buddaviylik va moniylik kabi e’tiqodlarga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, islomning aql va adolatga asoslangan, tenglik, haqqoniylik va ma’rifatni targ‘ib qiluvchi ta’limoti tufayli u ko‘p o‘tmay keng qabul qilindi [4, 102].

Islom bilan birga ilm va ta’lim madaniyati ham rivoj topdi: VIII–IX asrlarda Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf, Marv va Xorazmda ilk madrasalar tashkil etilib, ular diniy ilmlar bilan bir qatorda mantiq, falsafa, tib, matematika va astronomiya sohalarida ham ta’lim beruvchi ilmiy markazlarga aylandi. Madrasalarning asosiy vazifasi Qur’on, hadis, fiqh va kalom ilmlarini o‘rgatish bilan birga komil insonni tarbiyalash edi, Buxorodagi “Mir Arab”, Samarqanddagi “Ulug‘bek” va Xivadagi “Sherg‘ozixon” madrasalari esa jahon miqyosida tan olindi. Ilm olish har bir musulmonning burchi sifatida qaralgani sababli Movarounnahrdan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Xorazmiy kabi allomalar yetishib

chiqdi, ular islom ma’naviyati bilan ilmiy tafakkurni uyg‘unlashtirib, butun insoniyat tamadduniga hissa qo‘shdi [4, 102–103].

Madrasa ta’limi bilan bir vaqtda tasavvuf, ya’ni ruhiy poklanish va ma’naviy tozalanish yo‘li ham taraqqiy qildi. Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband kabi so‘fiylar madrasa ta’limini ruhiy-axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashtirib, insonning nafs ustidan g‘alaba qozonishi, faqirlik va shukr holatida yashash g‘oyasini ilgari surdilar. Tasavvuf ta’sirida jamiyatda insonparvarlik, mehr-shafqat, adolat va kamtarlik kabi qadriyatlar mustahkamlandi, madrasalar esa faqat ilm maskani emas, balki axloqiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi markazlar sifatida xizmat qildi [4, 103].

Bu tarixiy jarayon islom sivilizatsiyasida ma’naviy qadriyatlar tizimini shakllantirdi. Islom huquqshunosligi masalalari shariat asoslari va fiqh doirasida tizimli o‘rganiladi [6, 112]. Islom huquqshunosligida inson huquqlari “Maqosid ash-Shari’a” (shariat maqsadlari) tushunchasi bilan izohlanadi va u din, hayot, aql, mulk hamda nasl kabi beshta asosiy qadriyatni muhofaza qilishga qaratilgan. Hayotni asrash insonning jismoniy, ruhiy va iqtisodiy farovonligini qamrab oladi, aqlni saqlash uchun aroq va giyohvandlik harom qilingan, ilm izlash esa ibodat hisoblanadi. Mulk Allohning bandaga bergan omonati sanalgani kabi, inson tabiatning hukmdori emas, balki omonatdori hisoblanadi: u tabiatdan foydalanishi mumkin, ammo uni vayron qilishga haqqi yo‘q. Bu g‘oyalar “vaqf” shaklida ham amalga oshgan, ya’ni bog‘lar, suv inshootlari va hayvonlar uchun soyabonlar qurish diniy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan [4, 171–173]. Naslni muhofaza qilish esa oilaga borib taqaladi, chunki islom dinida oila qurish ibodat sanalib, nikoh muqaddas ahd hisoblanadi, er va xotin esa huquq jihatidan bir-birini to‘ldiradigan teng sheriklardir. Jamiyatdagi tinchlik va ma’naviyat ham oiladan boshlanadi, shu bois oila muhabbat va hurmatga asoslansa, butun jamiyat sog‘lom bo‘ladi [4, 173–174].

Oila va oilaviy munosabatlar dinshunoslik fanida jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida o‘rganiladi [7, 73]. Oila insonning ilk maktabi ekani uchun mehr, sabr, mas’uliyat, hurmat va shukr kabi sifatlar avvalo shu yerda shakllanadi, ota-onaga hurmat esa islom axloqida e’tiqodning amaliy jihati hisoblanadi. Ota-ona farzandini nafaqat dunyoviy bilim bilan, balki axloqiy tafakkur, vijdon va iroda bilan ham qurollantirishi shart, chunki axloqsiz bilim yomon quvvatga aylanishi mumkin. Rostgo‘ylik, poklik, hayo, adolat, sadoqat, rahmdillik va insof islom ta’limotining tayanch ustunlari bo‘lib, axloqsiz jamiyat tanasi bor, ammo ruhi yo‘q jamiyat hisoblanadi. Do‘stlik va hurmat jamiyatning ruhiy arxitekturasi sifatida talqin qilinadi [4, 175–176]. Islom ma’rifati zamonaviy sharoitda axloqiy tarbiya orqali shaxs kamolotini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi [8, 52].

Axloq bilan bir qatorda ilm ham islom sivilizatsiyasining asosiy ustunidir: ilm olish ibodat darajasiga ko‘tarilgani sababli IX–XII asrlarda islom dunyosi ilmning markaziga aylandi, Beruniy tabiatni, Ibn Sino insonni, Forobiy aqlni, Ulug‘bek

osmonni, Ibn Rushd esa fikrni tadqiq qildi. Islom falsafasiga ko‘ra, ilm nur, johillik esa zulmatdir. San’at ham insonni ilohiy yaratuvchilik bilan bog‘lovchi vosita sifatida qaralib, me’morlikdagi simmetriya, hattotlikdagi noziklik, musiqa va she’rdagi ruhiy ilhom ilohiy go‘zallikni his etishdan kelib chiqqan, so‘fiylar buni “ehson” tushunchasi bilan ifodalagan [4, 177]. Islom ilm-fani va madaniyati tarixi ensiklopedik nashrlarda keng yoritilgan [9, 310].

Islom so‘zining o‘zi “salomatlik, osoyishtalik, tinchlik” ma’nolarini anglatadi, tinchlik esa iymonning mevasi sifatida adolat va rahm-shafqat bor joyda barqaror bo‘ladi. Shu bois qo‘shnichilik ham tinchlik va hamjihatlikning asosi hisoblanib, nafaqat qo‘shni xonadon, balki qo‘shni millat va davlat bilan ham hamkorlik madaniyatini talab qiladi. Islom ummatining ma’naviy markazi bo‘lgan Makka va Madinada har yili millionlab musulmonlar haj va umra ibodatini ado etadi, hajda bir xil libosda bo‘lib, millat va toifa farqlarini unutgan holda Alloh oldida barobarlikni his qiladilar [4, 177–179].

Bugungi kunda bu qadriyatlar yanada dolzarb bo‘lmoqda. Islom sivilizatsiyasining asosiy tamoyillari tavhid, adolat, ilm va ma’rifat hamda axloq va mas’uliyatdan iborat bo‘lib, ular nafaqat diniy, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni ham belgilab kelgan. Moddiy taraqqiyot ma’naviy inqiroz bilan to‘qnash kelib, texnokrat madaniyat insonni individualizm va iste’molga yetaklayotgani, islom mamlakatlarida ta’lim va ilm sohasi rivojlanayotgani hamda islom madaniyati global maydonda tan olinayotgani sababli bu mamlakatlar o‘z sivilizatsion tamoyillariga yangi nazar bilan qaramoqda [4, 103–104]. O‘zbekistonda “Yangi O‘zbekiston” islohotlari islom ma’naviyati bilan uyg‘un holda amalga oshirilib, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband va Ahmad Yassaviy kabi allomalarning merosi qayta tiklanmoqda, Islom sivilizatsiyasi markazi hamda Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari esa islom ilmlarini zamonaviy tadqiqotlar bilan birlashtirmoqda [4, 104]. Bugun islomga e’tiqod qiluvchilar 1,8 milliarddan ortiq bo‘lib, bu sivilizatsiya urush va ekstremizmga qarshi ma’naviy immunitetni ifoda etadi, ilm-fan rivojiga meros bo‘lib xizmat qiladi hamda YUNESKO, ISESKO va Islom hamkorlik tashkiloti kabi institutlar orqali madaniyatlararo muloqotni mustahkamlaydi [4, 104–105]. Diniy qadriyatlarning insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalari bilan uyg‘unligi diniy ekstremizm va fanatizmga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi [10, 330].

Xulosa

Islom sivilizatsiyasi insonni ruh, tana va aql jihatidan mukammal tarbiyalaydi: unda do‘stlik jamiyatning ustuni, hurmat axloqning o‘zi, ilm nur, san’at esa ehsonning ifodasidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, u johiliyat zulmatidan adolat va ma’rifat sari yo‘l ochgan, Movarounnahrda madrasa ta’limi va tasavvuf orqali ilmiy hamda axloqiy

barqarorlikni mustahkamlagan, shariat maqsadlari, oila, tabiat, ilm va tinchlik g‘oyalari orqali ma’naviy qadriyatlar tizimini yaratgan. Hozirgi davrda u insonni moddiy dunyodan ma’naviy uyg‘onish sari yetaklash, millatlar va dinlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash hamda falsafiy tafakkurni insonparvarlik asosida qayta tiklash vazifasini bajarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalilov B. Dinlar falsafasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. – 148 b.

2. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021. – 128 b.

3. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2019. – 264 b.

4. Samatov X.U. Dinshunoslik. Darslik. – Samarqand, 2026. – 294 b.

5. Yovqochyev Sh. Markaziy Osiyo dinlari tarixi. – Toshkent: “Toshkent sharqshunoslik instituti” nashriyoti, 2006. – 208 b.

6. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘FMJ” nashriyoti, 2018. – 304 b.

7. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: TDIU, 2019. – 180 b.

8. Islom ma’rifati va hozirgi zamon [Matn]. Mas’ul muharrir A. Abdullaev; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti, Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016. – 160 b.

9. Islom. Ensiklopediya: A–H / Shayx Abdulaziz tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 672 b.

10. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni // Inson falsafasi. Darslik. – Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314–499.